

XORIJIY TILLARDA SO‘ZLASHUVCHILAR UCHUN O‘ZBEK TILINI INTENSIV O‘RGATUVCHI MULTIMEDIA MAHSULOTLARINI YARATISH TAJRIBASIDAN

Muxitdinova Xadicha Sobirovna,
pedagogika fanlari doktori, professor
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

***Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili bo‘limlarining tobora ko‘payib borayotgani, biroq ushbu bo‘limlar va xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlarni o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlanishida muammolar mavjudligi, xorijliklar uchun elektron darsliklar yaratish tajribasi va istiqbolda oldimizga qo‘yilgan vazifalar xususida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish, uslubiy-metodik ishlanmalar, o‘quv qo‘llanmalar, tizimli dasturiy ta’minot, multimedia ishlanmalari, elektron darslik, elektron lug‘atlar, so‘zlashgichlar, onlayn platforma.*

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mavqei ortib borayotgani, dunyoning ko‘plab yetakchi universitetlarida o‘zbek tili bo‘limlarining ochilishi, o‘zbek tili va adabiyotini, o‘zbek xalqining madaniyatini o‘rganishni xohlovchilar soni kundan-kunga ko‘payib borayotgani o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzining ham ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunga kelib jahonning 60 dan ortiq mamlakatlaridagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va madaniyati markazlari ochilgan, ularning qoshida maktab, lisey va kollejlarda tashkil etilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarida qoshida “O‘zbek tilining do‘stlari” klublari ham faoliyat yuritmoqda.

Biroq xorijiy mamlakatlardagi ushbu ta’lim muassasalari, o‘zbek tili va madaniyati markazlari, klublarini zarur o‘zbek tili va adabiyotidan o‘quv qo‘llanmalar, bosma va elektron darsliklar, uslubiy-metodik ishlanmalar bilan ta’minlash holati talab darajasida emas. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha 1990- yilda Toshkentda I.A. Kissen, Sh.U.Rahmatullayevlar tomonidan chop etilgan “Изучаем узбекский язык (самоучитель)” [1], 1997- yilda A.Raf ijev, Tunjay O‘zturk, D. Nuriddinova tomonidan tayyorlanib Toshkentda chop etilgan “Chet elliklar uchun o‘zbek tili” [2], 2002- yilda Nigora Ikromova va Hanneke Ykema tomonidan o‘zbek va ingliz tillarida tayyorlanib, Toshkentda chop etilgan “Marhamat” o‘quv qo‘llanmasi [3], Yu. Azizxanova va R. Tolipova tomonidan “O‘zbek tili chet elliklar uchun” o‘quv qo‘llanmalarini [4] ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ushbu o‘quv qo‘llanmalar xorijliklarni o‘zbek tili alifbosi va fonetikasi, grammatik strukturasi bilan tanishtirish, til o‘rganuvchilar nutqini dastlabki muloqot uchun

zarur bo‘lgan lug‘aviy zahira bilan boyitish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan bo‘lib, ularda o‘zbek tilining spesifik nutq tovushlari talaffuzi haqida ma‘lumotlar berilgan, faol qo‘llanadigan so‘z birikmalari, gap va jumlar tarjimai bilan keltirilgan, ularni nutqda qo‘llash namunalari bilan tanishtirilgan.

Biroq mazkur qo‘llanmalarning birortasi ham tizimli dasturiy ta‘minot asosida yaratilmagan va xorijiy tillarda so‘zlashuvchilarni o‘zbek tilidagi nutqiy ko‘nikmalarini tilning kompyuteryaviy darajalariga mos ravishda rivojlantirib borishga mo‘ljallanmagan. Shu bois bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan bo‘limlar va markazlarda o‘zbek tilini o‘rgatishda ko‘p hollarda eski o‘quv qo‘llanmalari, pedagoglar o‘zlari tuzgan didaktik materiallardan foydalanilmoqda. Bu o‘rinda shuni ham qayd etish kerakki, xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tilini o‘qitayotgan pedagoglarning aksariyati o‘zbek tili mutaxassisleri emas. Bularning barchasi oldimizga xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun maxsus tizimli dasturiy ta‘minot asosida tuzilgan va multimedia ishlanmalari kiritilgan o‘quv-metodik adabiyotlari bilan ta‘minlash majburiyatini yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5850- sonli, 2020- yil 20- oktyabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6084- sonli Farmonlari va ular ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan “2020 — 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da bu masalaning dolzarbligi qayd etib o‘tilgan.

Xususan, Konsepsiyaning 5-bandida davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, o‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish, uni o‘rganish istagida bo‘lgan chet ellik fuqarolarga ko‘maklashishga mo‘ljallangan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi onlayn platforma tashkil qilish, uning axborot bazasini ta‘minlash va muntazam boyitib borish; xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarning madaniy va til o‘zligini saqlab qolish, ularning o‘zbek madaniy an‘ana va qadriyatlari ruhida tarbiya topishlariga ko‘maklashish, xorijda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari bilan muntazam aloqa o‘rnatish va o‘zaro tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish; xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari, elektron dasturlar ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan [5].

Davlatimiz tomonidan oldimizga qo‘yilgan ushbu vazifalarni bajarish yo‘nalishida “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” amaliy loyihasi doirasida 5ta tilda ingliz, nemis, rus, xitoy, koreys tillarida so‘zlashuvchilar uchun elektron darslik, lug‘at, so‘zlashgich va o‘zbek tilining milliy-madaniy so‘zlari glossariysidan iborat elektron mahsulotlar majmuasi ishlab chiqildi [6, 7]. Ushbu dasturiy mahsulotlarning mavjud o‘quv qo‘llanmalardan farqi ularning multimedia ishlanmalaridan iboratligi bo‘lib, ulardan dars berish jarayonida ham, shuningdek, o‘zbek tilini mustaqil o‘qib o‘zlashtirish uchun ham foydalanish mumkin.

“Xorijliklar uchun o‘zbek tili” elektron darsligi til o‘rganishning A1-A2 darajasiga mo‘ljallangan bo‘lib, funksional grammatika asosida, ya’ni dialoglarga asoslangan mashqlar vositasida til o‘rganuvchilarni o‘zbek tilida kommunikatsiyaga olib chiqish yo‘nalishida tuzilgan. Elektron darslikda o‘zbek tilining nutq tovushlari, ularning so‘z tarkibida qo‘llanishi ovozashtirilgan, har bir darajaga mos dialoglar audio va videomateriallar orqali taqdim etilgan bo‘lib, bu til o‘rganuvchilarga o‘zbek tilidagi nutq tovushlari, so‘zlarning etalon talaffuzini eshitish va ularni mustaqil takrorlab o‘rganish imkoniyatini beradi. Dialogik suhbatlarning audio va video variantlari kommunikatsiyaga o‘zbekona ohang bilan qo‘shilishga, o‘zbeklarga xos muomala, yurish-turish madaniyatini o‘rganishga yordam beradi. Elektron darslikda barcha materiallar osondan qiyinga qarab kiritib borilgan, lug‘at minimumini berishda ham, grammatik minimumni belgilashda ham shunga alohida e’tibor qaratilgan. Ko‘pchilik audio va video materiallarni mavzularga mos tarzda maxsus tuzilgan, o‘zbek xalqi turmushini tabiiy jarayonini aks ettiruvchi autentik materiallar esa A2 darajaning so‘nggi mavzulariga kiritilgan.

Elektron darslik ingliz, nemis, rus, xitoy, koreys tillarida so‘zlashuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, darslikning kirish qismida O‘zbekiston, o‘zbek xalqi va tili haqidagi ma’lumotlar til o‘rganuvchilarinig ona tilida taqdim etilgan. Shuningdek, boshlang‘ich A1 darajasida topshiriqlar, qisqa grammatik kommentariylar shaklida kiritilgan o‘zbek tilining orfoepik, orfografik va grammatik tuzilishi haqidagi eng zarur qoida, ta’rif, tushuntirishlar, o‘lkashunoslikka oid kommentariylar shaklida berilgan o‘zbek xalqining turmush tarzi va milliy madaniy qadriyatlariga oid ma’lumotlar ham til o‘rganuvchilarning ona tilida berilgan. Bu xorijliklarga ushbu ma’lumotlarni tezroq tushunib olishlari va tushunib qo‘llashlariga yordam beradi. A2 darajadan boshlab esa barcha ma’lumotlar, topshiriqlarni faqat o‘zbek tilida berish, mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlarni matn ichida berib ketish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, darslikda o‘zbek tilini til o‘rganuvchilar o‘zbek xalqining turmush tarzi, muomala madaniyatini ham o‘zlashtirib borishlari uchun har bir mavzuga mos nutq etiketi namunalari, o‘lkashunoslikka oid sharhlar berib borilgan. Ularda, masalan, o‘zbeklarda sizlab gapirish, oilada ota-ona, aka-ukalar o‘rtasida murojaat shakllari, qavm-qarindoshchilik munosabatlari, urf-odatlarimiz haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Darslikning A1 darajasida o‘lkashunoslikka oid sharhlar til o‘rganuvchining ona tilida, A2 darajadan boshlab esa o‘zbek tilida matnlar tarkibida berib borilgan.

Elektron darslikda berilgan materiallarning asosiy qismi audio materiallar va video materiallardan iborat. Darslikning A1 darajasi uchun dialoglar maxsus videolavhalar sifatida suratga tushirib tayyorlandi, A2 darajada autentik video materiallar ham kiritilgan. Shundan kelib chiqib, audio va videomateriallar uch qismga bo‘lib tayyorlangan va mavzularga moslab kiritib borilgan. Audio va videomateriallarning 1-qismi o‘zbek tilida to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘zbek tilining nutq tovushlari, ularning to‘g‘ri talaffuzi, joy nomlari va milliy realiyalar qamrab olingan faol so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi etalon shaklda yozdirilgan audio tasmlardan iborat. 2-qismi o‘zbek xalqining kundalik turmush tarzida ko‘p qo‘llanadigan muomala etiketiga oid dialogik matnlarning audio va videotasmalari, 3-qismida o‘zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati, san’ati, urf-odatlari, qadriyatleri, O‘zbekiston tabiati, mashhur shaharlari, tarixiy obidalari, qishloq xo‘jaligi, sanoati haqidagi autentik videolavhalar berilgan. Berilgan ta’limiy-didaktik materiallarni eshitish, ko‘rish va o‘qish orqali o‘zlashtirish til o‘rganuvchilarga o‘zbek tilini intensiv o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

“Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” amaliy loyihasi doirasida 5ta tilda ingliz, nemis, rus, xitoy, koreys tillarida so‘zlashuvchilar uchun yaratilgan elektron darslik, lug‘at, so‘zlashgich va o‘zbek tilining milliy-madaniy so‘zlari glossariysidan iborat elektron mahsulotlar majmuasi Amerika Qo‘shma Shtatlari, Rossiya, Xitoy davlatlaridagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida taqdimot qilindi va aprobatsiyadan o‘tkazildi. Elektron darslikning eng zamonaviy yo‘nalishda – multimedia ishlanmalari asosida va aynan funksional grammatika yo‘nalishida yaratilgani, audio va video materiallarning mavzularga mos tarzda taqdim etilgani xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar tomonidan yuqori darajada e’tirof etilib, mazkur majmua o‘zbek tili bo‘limlari va markazlar, hatto maktablar uchun juda zarur didaktik ta’minot ekanligi qayd etildi. Ayni vaqtda xorijiy

mamlakatlarda o‘zbek tilining o‘qitilishi tajribalari, shart-saroitlarini o‘rganish ularda mavjud muammolarni aniqlash imkonini ham berdi.

Jahonning 60 dan ortiq mamlakatlarida o‘zbek tili va madaniyati markazlari ochilgan, ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili bo‘limlari faoliyat yuritishni boshlagan bugungi davrda:

boshqa tillar uchun ham shunday shu tipdagi multimedia mahsulotlarini yaratish;

multimedia mahsulotlarini o‘zbek tili ko‘nikmalarining B1, B2 darajalari bo‘yicha davom ettirish;

xorijliklar uchun kontentlari o‘zbek tili va adabiyoti, madaniyat va san‘at asarlari, autentik audio va videomateriallar bilan muntazam to‘ldirib boriladigan elektron platforma yaratish;

chet mamlakatlardagi vatandoshlarimizning farzandlarini uchun o‘zbekona urf-odatlar aks ettirilgan “O‘zbek tili” darsliklari, so‘zlashgichlar va rasmi lug‘atlar yaratish istiqboldagi muhim vazifalar ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Istiqboldagi ushbu vazifalarni amalga oshirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo‘lib, bu o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan xorijliklar safining kengayishiga, kelajakda jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarimizni yanada yaxshilashga, ayni vaqtda chet mamlakatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizning farzandlarini ham o‘z ona tillari va madaniyatlarini asrab qolishlariga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kissen I.A., Rahmatullayev Sh.U. “Изучаем узбекский язык (самоучитель)”. – Toshkent, 1990.
2. Rafiyev A., O‘zturk T., Nuriddinova D. (eds.) Uzbek language for foreigners. Tashkent: O‘zbek-Türk liceylari, 1997. — 176 p.
3. Sharipova N., Ykema H. Marhamat. Uzbek Coursebook for Beginners. Toshkent, 2002. — 297 p.
4. Azizxanova Yu., Tolipova R. O‘zbek tili (практический курс для иностранцев). – Toshkent, O‘qituvchi, 1999.
5. 2020 — 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
6. Madjidova R.U., Muxitdinova X.S. va b. Xorijliklar uchun o‘zbek tilidan multimedia mahsulotlari majmuasi: electron darslik so‘zlashgich, lug‘at, milliy-madaniy so‘zlar glossariysi (o‘zbek-ingliz, o‘zbek-rus tillarida electron majmua) - O‘zR Adliya Vazirligi Intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomalari: № DGU 005874, № DGU 005875/ – Toshkent, 2023.

7. Madjidova R.U., Muxitdinova X.S. va b. Xorijliklar uchun o‘zbek tilidan multimedia mahsulotlari majmuasi: electron darslik so‘zlashgich, lug‘at, milliy-madaniy so‘zlar glossariysi (o‘zbek-nemis, o‘zbek-koreys, o‘zbek-xitoy tillarida electron majmua) - O‘zR Adliya Vazirligi Intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomalari: № DGU 006032, № DGU 006030, № DGU № 006031.— Toshkent, 2024.